

**O'qituvchi: I. Tojiyeva****FAN: Milliy istiqlol goyasi va ma`naviyat asoslari****SINF: 7-sinf****MAVZU: Jamiyatga xavf soladigan illatlar****TEXNOLOGIK XARITA**

<b>MAVZU</b>	<b>7-sinf Jamiyatga xavf soladigan illatlar</b>
<b>Maqsad, vazifalar</b>	<p><b>Maqsad:</b> O‘quvchilarga Jamiyatga xavf soladigan illatlar to‘g‘risida bilimlar berish</p> <p><b>Vazifalar:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- o‘quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg‘otish, ularda mavzu asosida bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish va kengaytirish.</li> <li>- mavzuga oid tarqatilgan materiallarni o‘quvchilar tomonidan yakka va guruh holatida o‘zlashtirib olishlari hamda suhbat munozara orqali tarqatma materiallardagi matnlar qay darajada o‘zlashtirilganligini nazorat qilish, ularni bilimini baholash.</li> </ul>
<b>O‘quv jarayonining mazmuni</b>	Jamiyatga xavf soladigan illatlar to‘g‘risida bilimlar berish
<b>O‘quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi</b>	<p><b>Uslub:</b> Og‘zaki bayon qilish, “<b>Tushunchalar tahlili</b>” – <b>texnologiyasi</b>, “<b>T - sxema</b>” <b>jadvali</b></p> <p><b>Shakl:</b> suhbat-munozara, amaliy mashg‘ulot, kichik guruhrar va jamoada ishlash.</p> <p><b>Vosita:</b> Tarqatma materiallar: matnlar, jadvallar.</p> <p><b>Usul:</b> Tayyor yozma materiallar va chizmalar asosida.</p> <p><b>Nazorat:</b> Og‘zaki nazorat, savol-javoblar, kuzatish, o‘z-o‘zini nazorat qilish.</p> <p><b>Baholash:</b> Rag‘batlantirish, 5 balli tizim asosida baholash.</p>
<b>Kutiladigan natijalar</b>	<p>O‘qituvchi: mavzuni qisqa vaqt ichida o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirishiga erishadi, o‘quvchilar faolligini oshiradi. O‘quvchilarda darsga nisbatan qiziqish uyg‘otadi. Bir mashg‘ulot jarayonida o‘quvchilarni baholaydi. O‘z oldiga qo‘yan maqsadlariga erishadi. O‘quvchilar tomonidan yozma axborotni mustaqil o‘rganish, uni xotirada saqlash, boshqalarga yetkazish, savol berish va savollarga javob berishga o‘rgatadi.</p> <p>O‘quvchi: Yangi bilimlarni egallaydi. Yakka holda va guruh bo‘lib ishlashni o‘rganadi. Nutqi rivojlanadi va eslab qolish qobiliyati kuchayadi, o‘z-o‘zini nazorat qilishni o‘rganadi, qisqa vaqt ichida ko‘p ma‘lumotga ega bo‘ladi va baholay oladi.</p>
<b>Kelgusidagi rejalar (tahlil, o‘zgarishlar)</b>	<p>O‘qituvchi: Yangi pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirish va darsda tatbiq etish, takomillashtirish. O‘z ustida ishlash, mavzuni hayotiy voqealar bilan bog‘lash. Pedagogik mahoratni oshirish.</p> <p>O‘quvchi: matn bilan mustaqil ishlashni o‘rganadi. O‘z fikrini ravon bayon qila oladi. Shu mavzu asosida qo‘srimcha materiallar topadi, ularni o‘rganadi. O‘z fikri va guruh fikrini tahlil qilib bir yechimga kelish malakasini hosil qiladi.</p>

## **DARSNING BLOK CHIZMASI**

	<b>Dars bosqichlari</b>	<b>Vaqti</b>
	Tashkiliy qism	3 minut
	O‘tilgan mavzuni takrorlash	12 minut
	Yangi mavzuni guruuhlar bilan ishslash	15 minut
	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 minut
	Baholash	3 minut
	Uyga vazifa	2 minut

### **Darsning borishi**

#### **I. Tashkiliy qism:**

O‘quvchilar bilan salomlashish, sinf tozaligiga e’tibor qaratish, o‘quvchilarni darsga tayyorlash, davomatni aniqlash, uyga berilgan vazifalarini tekshirish, O‘zbekistonda va dunyoda sodir bo‘layotgan yangiliklar bilan (topshiriq berilgan o‘quvchilar orqali) tanishtirish.

#### **Darsning jihozlanishi va darsga hozirlilik ko‘rish**

1. Darslik, mavzuga oid rasmlar
2. Dunyo va O‘zbekiston xaritasi
3. Tarqatma materiallar: (topshiriqlar yozilgan kartochkalar)
4. Sinf xonasini guruhlarga ishslashga tayyorlash (sinf o‘quvchilarining soniga qarab 4, 5 guruhga bo‘lib, stollarni qo‘yib chiqish)

### **Dars turi: Aralash**

Dars jarayonida qo‘llaniluvchi metodlar: “Tushunchalar tahlili” – texnologiyasi, “T - sxema” jadvali

#### **Sinfni guruuhlar bilan ishslashga tayyorlash**

O‘quvchilarni guruhlarda ishslashga tayyorlash uchun dars boshlanishidan avval ularga

“Tushunchalar tahlili” – texnologiyasi, “T - sxema” jadvali haqida tushunchalar beriladi.

#### **II. O‘rganilgan mavzuni so‘rab baholash**

O‘quvchilar quyidagi “Tushunchalar tahlili” – texnologiyasi yordamida tayanch so‘z va iboralariga og‘zaki yoki yozma ravishda javob beradilar:

#### **2. “Tushunchalar tahlili” – texnologiyasi yordamida tayanch so‘z va iboralar bilan ishslash**

<b>Tushunchalar</b>	<b>Mazmuni</b>
Xudbinlik	

<b>Loqaydlik</b>	
<b>Qarindosh-urug‘chilik va mahalliychilik</b>	
<b>ta'magirlik</b>	
<b>Manfaatparastlik</b>	
<b>Manmanlik</b>	
<b>Hasad</b>	
<b>Sotqinlik</b>	

### **III. Yangi dars mazmuni** (7-sinf Jamiyatga xavf soladigan illatlar ):

O‘qituvchi yangi mavzuni tushuntiradi  
Ma’ruza quyidagi tartibda tushuntiriladi:

- Jamiyatga xavf soladigan illatlar ning jamiyat hayoti uchun nihoyatda xavfli ekani haqida.
- Jamiyatga xavf soladigan illatlardan forig‘ bo‘lish shartlari.

### **IV. Yangi mavzuni mustahkamlash uchun**

#### **1) Savollar**

1. Jamiyatga xavf soladigan illatlar haqida so‘zlab bering.
2. Jamiyatga xavf soladigan illatlarning sabablarini qayd eting.
3. Jamiyatga xavf soladigan illatlarni misollar yordamida asoslab bering.

O‘quvchilarda faol bilim olish nuqtai nazarini mustahkamlaydi va quyidagilarga o‘rgatadi:

- Tarqoq holatdagi faktlarni yagona bir shaklga bog‘lash;
- Mavjud bo‘lgan ma’lumotlarni tizimlashtirish;
- O‘quvchilarni tinglash va fikrlarini e’tiborga olish.

### **V. Dars yakunlanadi va baholanadi**

O‘quvchilar tomonidan bajarilgan topshiriqlarni o‘qituvchi baholash uchun o‘quvchilarning uyga berilgan vazifalarni to‘g‘ri bajarganligi, darsdagi faol ishtiropi e’tiborga olinib baholanadi.

### **VI.Uyga vazifa**

Yangi mavzuni darslik bo‘yicha o‘qib, mavzu oxiridagi “T - sxema” jadvalini to‘ldiramiz

<b>Qanday insonni biz ma’naviy barkamol va komil inson deb hisoblaymiz?</b>	<b>Qanday insonni esa ma’naviy qashshoq inson deb hisoblaymiz?</b>
<ul style="list-style-type: none"> <li>• ma’naviy barkamol inson shon-shuhrat, mansab, moddiy boylik ketidan quvmaydi;</li> <li>• moddiy qiyinchiliklarga duch kelganda qaddi bo‘kilmaydi;</li> <li>• ba’zan uyushtirilgan tuhmatu-fitnalar uning ruhini tushira olmaydi;</li> <li>• har qanday shum taqdir va qismat pokiza, mard, ma’naviy barkamol inson</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• insonning insonligi, birinchi navbatda uning ma’naviy - axloqiy jihatdan barkamolligi, pokligi bilan belgilanadi xudbbin, boylik ketidan quvgan;</li> <li>• yengil yelpi hayot kechirayotgan;</li> <li>• milliy mansubligini unutgan, o‘z millatining istiqboli uchun qayg‘urmaydigan, kurashmaydigan;</li> </ul>

<p>ma’naviyatini bo‘za olmaydi, balki mustahkamlaydi, chiniq-tiradi;</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• yuksak darajadagi ma’naviyatga ega inson - fidoyilik, jasorat, mardlik, o‘z xalqini sevish, Vatanni qadrlash, ajdodlaridan faxrlanish kabi oljanob fazilatlari bilan ajralib turadi</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• tuban, loqayd, manqurt insonlar;</li> <li>• kishilarda milliy g‘urur ham, millat bilan faxrlanish ham, millatparvarlik ham bo‘lmaydigan;</li> <li>o‘z xalqining tarixini, milliy qadriyatlarini, tilini, istiqbol manfaatlarini bilmagan, qadrlamagan inson</li> </ul>
--	---

## JAMIYATGA XAVF SOLADIGAN ILLATLAR

### (MA`RUZA)

Ma’naviy tahididlarga qarshi kurash davlatning, biror bir ijtimoiy uyushmaning ishi bo‘lmay, har birimizning vazifamizdir. Beparvolik va loqaydlik o‘z manfaatini jamoat manfaatidan ustun qo‘yishdan, xudbinlikdan, kelajak haqida qayg‘urmaslikdan, o‘ziga ham, o‘zgalarga ham ishonmaslikdan, qo‘rqoqlikdan kelib chiqadi. Jamiyat kelajagini o‘ylaydigan inson hech qachon tevarak-atrofidagi hodisalarga beparvo, loqayd bo‘lmaydi. Zararli, yot jarayonlarni fosh qiladi, ularga qarshi fidoyilik bilan kurashadi. Shuning uchun I.Karimov bu masalani alohida ta’kidlaydi: “Barchamizga ayon bo‘lishi kerakki, qayerdaki beparvolik va loqaydlik hukm sursa, eng dolzarb masalalar o‘zi bo‘lirlilikka tashlab qo‘yilsa, o‘sha yerda ma’naviyat eng ojiz va zaif nuqtaga aylanadi. Va aksincha – qayerda hushyorlik va jonkuyarlik yuksak aql-idrok va tafakkur hukmron bo‘lsa, o‘sha yerda ma’naviyat qudratliti kuchga aylanadi”<sup>1</sup>.

Hozirgi paytda insoniyat hayotiga katta xavf tug‘dirayotgan xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm, narkoagressiya va SPID singari ofatlarni ko‘pchilik “yaxshi” biladi. Lekin bugungi kunda hamma ham bilavermaydigan, oshkora ko‘zga tashlanmaydigan, ma’naviy hayotimizni izdan chiqarishga qaratilgan jiddiy xatarlar ham borki, ularning oldini olmasak, keyin kech bo‘ladi. Bular G‘arb olamida keng tarqalgan egotsentrizm va erkinlik niqobidagi axloqsizlik falsafasidir.

“Menga nima” deb qarash, loqaydlik, bepisandlik, o‘zini, o‘z manfaatini hammadan ustun qo‘yish, xudbinlik, hamma narsalar mening huzur-halovatimga xizmat qilishi kerak, deyish, shuhratparastlik, kibr, mahmadonalik, tajanglik, birovni eshita bilmaslik, xatosini tan olmaslik, sovuqqonlik, tanqidga chidamsizlik – egotsentrizm dardiga duchor bo‘lgan odamning belgilari.

Mustaqillik ruhida yangicha fikrلaydigan fozil, ma’naviy barkamol va komil inson, eng avvalo, fuqarolik burchini “a’lo” darajada his etaditgan shaxs bo‘lishi darkor. Sodda qilib aytganda, har qaysi ma’naviy barkamol va komil inson, har birimiz: “Shu davlat, shu jamiyat menga nima berdi?” deb emas, balki: “Men o‘zim Vatanimga, elu yurtimga nima berdim?” deb o‘ylashimiz va har dam shu aqida bilan yashashimiz kerak.

---

<sup>1</sup>Каримов И.А. Юксак маънавият - енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008

